



SOLIQ RISKINING IQTISODIY MOHIYATI VA UNGA OID ILMIY QARASHLARNING NAZARIY TALQINI

PhD Nasimov Ravshanjon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ravshanjonnasimov2020@gmail.com

ORCID: 0009-0006-5663-1604

Annotatsiya. Maqolada soliq riskining iqtisodiy mohiyati va unga oid ilmiy qarashlarning ahamiyati, O'zbekistonda iqtisodiy xatti-harakatlar va natijalarni shakllantirishda soliq siyosatining ahamiyati ko'rsatilgan. Ular yuqori soliq stavkalari, murakkab qoidalar va past soliq axloqi tadbirkorlik faolligi va rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lishi jihatdan o'rganilgan hamda ilmiy xulosa va takliflar shakllantirilib, soliq riskining iqtisodiy mohiyati va unga oid ilmiy qarashlar nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq riski, soliq stavkalari, byudjet xarajatlari, resurs soliqlari, yer solig'i, mahalliy soliqlar, soliq, byudjet, soliq imtiyozlari.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ НАЛОГОВОГО РИСКА И ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НАУЧНЫХ ВЗГЛЯДОВ НА НЕГО

PhD Насимов Равшанжон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье показаны экономическая сущность налогового риска и значение научных взглядов на него, значение налоговой политики в формировании экономического поведения и результатов в Узбекистане. Они изучаются с точки зрения высоких налоговых ставок, сложных правил и низкой налоговой этики как серьезных препятствий предпринимательской деятельности и развитию, а также сформулированы научные выводы и предложения с учетом экономической сущности налогового риска и научных взглядов на него.

Ключевые слова: налоговая ставка, налоговая отчетность, налоговый риск, налоговые ставки, бюджетные расходы, ресурсные налоги, земельный налог, местные налоги, налог, бюджет, налоговые льготы.

THE ECONOMIC ESSENCE OF TAX RISK AND THEORETICAL INTERPRETATION OF SCIENTIFIC VIEWS ON IT

PhD Nasimov Ravshanjon

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article shows the economic essence of tax risk and the importance of scientific views on it, the importance of tax policy in shaping economic behavior and results in Uzbekistan. They are studied from the point of view of high tax rates, complex rules and low tax ethics as serious obstacles to entrepreneurial activity and development, and scientific conclusions and proposals are formulated, taking into account the economic essence of tax risk and scientific views on it.

Keywords: tax rate, tax reporting, tax risk, tax rates, budget expenditures, resource taxes, land tax, local taxes, tax, budget, tax benefits.

Kirish.

O'zbekiston sharoitida soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish asosida ularda ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda ularda yuzaga keladigan soliq xavfini optimal baholash orqali davlat byudjetining zarar ko'rish holatlarini kamaytirishga qaratilgan amaliy choralarni samarali amalga oshirilishga keng urg'u berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi "Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarorida respublikamiz soliq tizimida soliq xavfini baholash va soliq to'lovchilarni insofilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish, soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini ularning moliyaviy va soliq hisobotlari asosida ular duch kelishi mumkin bo'lgan turli xil iqtisodiy risklar (xavflar)ni baholashning turli mezonlarini ishlab chiqish, soliq risklarini aniqlab berishga xizmat qiluvchi mezonlar esa, soliq to'lovchilarning turli xil ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish orqali aniqlanishi ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Elmirzaev (2018) bu boradagi ilmiy tadqiqotlari alohida kasb etadi. Ushbu olimning fikriga ko'ra, "soliq riski bu soliq munosabatlarida qatnashuvchi sub'ektlarning o'z majburiyatlarini bajarish borasidagi faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va soliq to'lovchilar, shuningdek davlat budjeti moliyaviy yo'qotishlariga sabab bo'luvchi xavf-xatar" dir deb ta'riflab, soliq risklari, avvalambor, sub'ektlar bo'yicha tasniflanadi, bunda soliq munosabatlari davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat natijasida yuzaga kelishi tufayli soliq riski tushunchasiga ikki xil nuqtai nazardan yondashish mumkinligi kelib chiqadi.

Shuningdek, o'zbek olimlaridan Boboev (2020) o'zining ilmiy tadqiqotlarida soliqlarni prognoz qilish jarayoni soliq riski bilan doimiy bog'liq bo'ladi, agar, soliq riski to'g'ri baholansa, soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi xatoliklar yoki aniqlikka ega ko'rsatkichlarning haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi degan fikrni bildiradi

Ashurov bu borada (2020) "Risk", "tavakkalchilik" kabi tushunchalarni bir xil ma'nodagi tushunchalar deb qarash o'rinli emas, risk-birinchi navbatda xavf-xatar, tavakkalchilik, yo'qotish va zarar yoki foydani yuzaga keltiruvchi omil hisoblanib, ushbu iqtisodiy tushunchalar mazmunini o'zida aks ettiradi. U korxonalar faoliyatini xavf, xatar, tavakkalchilik, yo'qotish va zarar yoki foydaga olib borishda va ularning yuzaga kelishida boshlang'ich manbaa bo'lib xizmat qilgani holda, noaniqlik asosidagi ob'ektiv harakterga ega iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Bunga sabab ishlab chiqaruvchi tomonidan qabul qilingan qaror oldindan ko'rib bo'lmaydigan va kutilmaydigan bir necha noaniq omillar ta'sirida bo'ladi

Ojegov va Shvedova (2006) Risk bu —muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisa, umid|| degan ma'noni anglatadi.

Usoskin (1994) Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, o'z navbatida, oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi.

Sevruk (2006) Risk - bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir.

Grabovoy, Petrova va Poltavtsev (2006) Risk - bu korxona resurslarining bir qismini yo'qotish yoki daromad ola olmaslik, qo'shimcha xarajatlar qilish xavfidir.

Lavrushin (2007) Bank riski ehtimoliy hodisaning qiymat o'lchovi bo'lib, u yo'qotishlarga olib keladi.

Panova (2014)Risk kutilmagan hodisalar yuzaga kelganida yo'qotish xavfi yoki imkoniyatidir.

Sey (2007) Risk foydaning faqat bir qismini shakllantirish omili hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq riskining tadbirkorlik sub'ektlariga ta'siriga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Insoniyat iqtisodiyotda o'zaro munosabatlarga kirishishi bir tekisda bo'lmaydi, bu esa risklarning yuzaga kelishini ta'minlaydi, boshqa tomondan iqtisodiyotdagi ob'ektiv qonuniyatlarning "buyrug'i"ni barcha qatnashuvchilar ham "bajara olmaydi", bundan tashqari ular bozorda mustahkam mavqega ega bo'lish uchun o'zaro kurashadilar, ya'ni raqobat muhitini shakllantiradi. Bu kabi holatlar esa, risk deb ataladigan ijtimoiy-iqtisodiy va sosial holat bilan hisoblashishlarni taqozo etadi. O'zbekistonlik olimlardan professor Malikov va iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori Xidirovlar "Moliya" nomli o'quv qo'llanmasida risklarning rag'batlantiruvchi va himoyalovchi funktsiyalarini keltirib o'tadiki, bu risklarni faqat salbiy holat sifatida baholash o'rinli emas degan xulosalarni berib o'tadi.

Ushbu mualliflar risklarni tasniflab ularni iqtisodiy risk, ijtimoiy-siyosiy risk va fiskal-monetar risklarga ajratadi hamda "fiskal-monetar risk davlat o'tkazayotgan moliyaviy va budjet siyosati yordamida, narxlar darajasini barqarorlashtirish va optimal soliq me'yorlarini, pul massasining ta'minoti va kon'yukturasini tartibga solish bo'yicha Markaziy bankning samarali aralashuvi va boshqalar orqali yirik, murakkab tizimlar barqarorligi va iqtisodiy o'sishini ta'minlash bo'yicha masalalarni yechishda yuzaga keladigan risklar majmuidan iborat, moliyaviy risklarni esa, korxonalarning boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan risklar "dir (Malikov, 2022) deb ta'rif bergan.



1-rasm. Moliyaviy risklar (Malikov, 2022)

Moliyaviy risklarning muhim turlaridan yana biri bu soliq risklaridir. Soliq riskining o'zagini bizningcha, markazlashgan pul fondlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida soliqlarning mavjudligidan izlash lozim. Soliqlarning o'zi esa majburiy xarakterda ekanligi va uni to'lashdagi notekisliklar hamda soliq to'lovchilar madaniyatining etarli emasligi, qolaversa, soliq to'lovchilarning faoliyati bozor qonunlari asosida kechishligi soliqlarning budjetga kelib tushmaslik riskini yuzaga keltiradi.

Chunki, bozorda iqtisodiy munosabatlar notekis amal qiladiki, buning natijasida unda faoliyat ko'rsatuvchilarning daromad olishi ham turlicha bo'ladi. Soliq to'lovchi hisoblanlangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar esa, bu jarayonda ularga yuklatilgan soliqlarni o'z vaqtida to'lashi ham notekislashadi, ya'ni davlat budjetiga soliqlarning kelib tushmaslik riski yuzaga keladi. Bundan tashqari soliqlarning muhim elementlaridan bo'lgan ekvivalentsizlik kim qancha soliq to'lasa, shuncha ijtimoiy xizmat oladi degan qoidani bermasligi, davlat budjetiga kelib tushadigan soliqlarning bir maromda tushmasligini ko'rsatadi, bu esa soliq riskini keltirib chiqaruvchi omil sifatida maydonga chiqadi.

Bozor munosabatlari sharoitida soliq majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslarja iqtisodiy egoizmning doimiy mavjud bo'ladi, bu esa soliq to'lashdan ko'ra, daromadlarni o'z manfaatlariga ko'proq sarflashni taqozo etadi, vaholanki, bu holat soliq riskini keltirib chiqaradi, bundan tashqari, soliq to'lovchilarda soliqlarni o'z vaqtida va xalol to'lash madaniyatining etarli emasligi turli darajadagi budjetlarga soliq to'lovlarining kelib tushmaslik riskini paydo qiladi.

Ma'lumki, soliq to'lovchilarning faoliyati bozor qoidalariga mos amal qilishi va daromad olishning kafolatlanmagan bo'ladi, bu esa, ularning daromad olishini tabaqalashtiradi, daromadlar bo'yicha tabaqalashuv esa, soliqlarning o'z vaqtida to'lanmaslik riskini yuzaga keltiradi. Bulardan tashqari, bizning fikrimizcha, soliqqa oid qonunchilikdan soliq to'lovchilarning yetarli xabardor bo'lmasligi turli xil moliyaviy buzilishlarni keltirib chiqarib, natijada soliq riskini vujudga keltiradi, budjet-soliq siyosatining barqaror bo'lmasligi va uning tez o'zgaruvchanligi soliq to'lovchilarda xavotir o'yg'otadi yoki ishonchsizlikni keltirib chiqaradi, shuningdek, davlatning import-eksport borasidagi siyosatidagi o'zgarishlar ahami xuddi shunday holatni keltirib chiqaradiki, oqibatda bu jarayonlar soliq riskini keltirib chiqaradi.

Demak, shunday xulosa chiqarish mumkinki, soliq riski moliyaviy risklarning muhim bo'g'ini sifatida u doimiy mavjud bo'ladi. Davlat budjetining asosiy daromad manbalaridan biri sifatida soliqlar amal qilar ekan, yuqoridagi omillarga ko'ra soliq riski doim saqlanib turadi. Qachonki, jamiyatda soliq to'lash majburiyatlari yuklatilgan soliq to'lovchilarda soliq to'lash madaniyati juda yuqori darajada to'lanib, budjetga soliqlar o'z vaqtida to'lanib turilsada, ammo bozor munosabatlari sharoitida notekisliklarning doimiy amal qilishi soliq riskini ham doimiy bo'lishini taqozo etadi.

Agar, biz soliq riskini budjet manfaatlari nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, unda ikki xil holatdagi soliq riskini farqlashimiz kerak bo'ladi. Birinchisi, bu budjetlarga soliq tushumlarining kelib tushmaslik bo'yicha soliq riski bo'lsa, ikkinchisi, soliq to'lovchilarning Qonunchilik bilan ularning zimmasiga yuklatilgan soliq majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olmaslik doirasidagi soliq riskidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda soliq riskini bir tomonlama tushunish to'g'ri emas. Biz tadqiqot ishimizda soliq riskini tadqiq etishda ana shu jihatdan yondoshishga harakat qilamiz.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat risklari soliq risklarining asosi hisoblanadi. Iqtisodiyotda inflyasiya ko'rsatkichlarining oshishi hisobiga pul daromadlarining qadrsizlanishi, korxonalarining investision faoliyatlari bo'yicha ular kutgan daromadlarni ololmasligi, korxonalarda iqtisodiy faoliyati natijasida foiz ko'rsatkichlari, to'lovlarini oshib ketishligi yoki kamayib ketishligi ehtimolligi tufayli ko'zlangan foyda hajmini ololmaslik ehtimolligi va shu kabilar tijorat risklari doirasida vujudga keladi.

Risklarning talqini

1.	Ojegov va Shvedova	Risk bu —muvaqqatga intilish, baxtli hodisa, umid degan ma'noni anglatadi	Ojegov S.I., Shvedova N.Yu. Tolkoviy slovar russkogo yazika. — M.: OOO —A TEMP , 2006.
2.	Usoskin	Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, o'z navbatida, oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi	Usoskin V.M. Sovremenniy kommercheskiy bank: upravlenie i operasii. - M.: IPS "vazar-Ferro", 1994.
3.	Sevruk	Risk - bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir	Sevruk V.T. Bankovskie riski. M.: —Delo-LTD , 2006.
4.	Grabovoy, Petrova, Poltavtsev	Risk - bu korxona resurslarining bir qismini yo'qotish yoki daromad ola olmaslik, qo'shimcha xarajatlar qilish xavfidir	Grabovoy P.G., Petrova S.N., Poltavtsev S.I. Riski v sovremennom biznesa. M.: —Alans, 2006.
5.	Lavrushin	Bank riski ehtimoliy hodisaning qiymat o'lchovi bo'lib, u yo'qotishlarga olib keladi	Lavrushin O.I. Bankovskie riski. - M.: —Knorus, 2007.
6.	Panova	Risk kutilmagan hodisalar yuzaga kelganida yo'qotish xavfi yoki imkoniyatidir	Panova G.S. Kreditnaya politika kommercheskogo banka. - M.: —Yurayt, 2014.
7.	Sey	Risk foydaning faqat bir qismini shakllantirish omili hisoblanadi	Sey, J.B. Traktat po politicheskoy ekonomii. - M.: —Direkt-Media, 2007.

Bu risklar esa, iqtisodiy oqibatlariga ko'ra soliq risklarining darajasini ham belgilab beradi.

Soliq riskini anglashimiz uchun ularning mohiyatini tadqiq etish talab etiladi, bu esa ularning ilmiy-tadqiqotlarda qanday talqin etilganligini tahlil qilishni taqozo etadi. O'zbekistonlik iqtisodchi olim Elmirzaevning bu boradagi ilmiy tadqiqotlari alohida kasb etadi. Ushbu olimning fikriga ko'ra, "soliq riski bu soliq munosabatlarida qatnashuvchi sub'ektlarning o'z majburiyatlarini bajarish borasidagi faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va soliq to'lovchilar, shuningdek davlat budjeti moliyaviy yo'qotishlariga sabab bo'luvchi xavf-xatar"dir deb ta'riflab, soliq risklari, avvalambor, sub'ektlar bo'yicha tasniflanadi, bunda soliq munosabatlari davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat natijasida yuzaga kelishi tufayli soliq riski tushunchasiga ikki xil nuqtai nazardan yondashish mumkinligi kelib chiqadi. Ya'ni soliq risklari bir tomondan davlat boshqaruv organlarining soliqqa tortish borasidagi faoliyati davomida (bunda soliq riski Qonunchilik, ijro etuvchi va sud organlari faoliyati orqali vujudga kelishi ko'rib chiqiladi), ikkinchi tomondan soliq to'lovchilarning soliq munosabatlariga kirishishi natijasidagi qonunchilikka zid xatti-harakatlari oqibatida yuzaga kelishi ko'rib chiqiladi degan g'oyani ilgari suradi.

Shuningdek, o'zbek olimlaridan Boboev (2020) o'zining ilmiy tadqiqotlarida soliqlarni prognoz qilish jarayoni soliq riski bilan doimiy bog'liq bo'ladi, agar, soliq riski to'g'ri baholansa, soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi xatoliklar yoki aniqlikka ega ko'rsatkichlarning haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi degan fikrni bildiradi. Xorijiy olimlarining ilmiy qarashlarini tahlil qiladigan bo'lsak, masalan, "soliq riski – bu moliyaviy faoliyati jarayonida soliq qonunchiligidagi noqulay o'zgarishlar yoki soliq to'lovlarini hisoblashdagi xatolar oqibatida iqtisodiyot sub'ekti duch kelishi mumkin bo'lgan zarar ehtimoli (xavfi)dir" deb ta'rif bergan Filin (2002) soliq riskini moliyaviy xatoliklar asnosida baholagan.

Shunday olimlardan biri Kalashnikovaning (2007) fikricha, "soliq riski, bizning nazarimizda – bu soliqqa tortish jarayonida soliq to'lovchi noqulay iqtisodiy oqibatlar, mulkini qo'shimcha soliq summasi shaklida budjet foydasiga musodara etishni ham qo'shib, inson faktori, axborot asimmetriyasi natijasidagi soliq sanksiyalari va peniyalar, soliq

to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi negativ o'zgarishlar oqibatida ehtimoliy shaklda duch kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchilikdir". Bunday tavsif risklar tizimidagi soliq risklarining tabiatini nisbatan to'liqroq ochib beradi. Bizning fikrimizcha, soliq risklarini tadqiq etish maqsadida birlamchi o'zgarish sifatida moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlar, siyosiy vaziyat o'zgarishi hamda qonunchilikdagi o'zgarish va boshqa shu kabi tushunchalarini birlashtirish mumkin. Soliq risklarining ajralib turuvchi xususiyati shuki, soliq stavkalarining o'sishi bilan soliq riski summasining oshishi ham ro'y beradi deb hisoblaydi muallif.

Boshqalardan farqli o'laroq, rosiyalik olim Leushev esa, soliq risklarini keng ma'noda, salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi hodisalar boshlanish ehtimoli, ya'ni aynan soliqlarni hisoblash va to'lash jarayoni bilan bog'liq moliyaviy (yoki boshqacha) zarar ehtimoli sifatida qo'llash lozim degan taklifni ilgari suradi va o'z navbatida soliq risklarini soliq organlari tomonidan soliqlar, jarimalar, peniya (ustama)lar va boshqa moliyaviy sanksiyalarni hisoblashgacha bo'lgan ehtimol sifatida belgilash mazmundagi ta'rifni keltirib o'tadi.

Tshekin soliq riskini huquqiy tavakkalchilikning bir bo'lagi sifatida qaraydi, ya'ni, uning fikriga ko'ra, "soliq riski huquqiy tavakkalchilikning qismi sifatida tushunilib, chunki soliqqa tortish nafaqat moliyaviy kategoriya, balki huquqiy va bundan tashqari, u alohida kodlashtirilgan huquq sohasidir. Afsuski, an'anaviy tavakkalchilik tizimida huquqiy risk kamdan-kam tilga olinadi, tizimda huquqiy risklar (yuridik risklar), ya'ni qonunchilikning noaniqligi yoki amaldagi qonunchilikning qonuniy talablari buzilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar riskidir".

Tixonov (2004) esa, soliq riskini "soliq to'lovchining soliqlarni to'lash va optimallashtirish jarayoni bilan bog'liq pul shaklida ifodalangan moliyaviy va boshqa yo'qotishlarga duchor bo'lish imkoniyati" sifatida baholasa, Filina (2007) soliq riskining negizini "soliq huquqiy munosabatlar sub'ektining amaldagi huquq normalariga asoslanib, ushbu sub'ektning o'zi qabul qilgan kelajakdagi holatlardan salbiy chetga chiqishi tufayli soliqqa tortish jarayoni bilan bog'liq moliyaviy va boshqa yo'qotishlarga duchor bo'lish tavakkalchiligi asosida uning hozirgi paytdagi qarorlar qabul qilishidir" deb ta'riflaydi. Soliq riski bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan Tyutyugina Anna Viktorovna esa, soliq riskini "soliq muhitining kutilayotgan holatdan to'satdan yoki kutilayotgan salbiy o'zgarishlari, shuningdek, soliq muhitidagi huquqiy noaniqlik tufayli soliq huquqiy munosabatlari sub'ektining moliyaviy va boshqa yo'qotishlarga duchor bo'lmaslik uchun qaror qabul qilish imkoniyati" deb ifodalagan.

Shu erda shu narsani alohida ta'kidlashimiz kerakki, Tyutyuginaning (2013) soliq riski borasidagi tadqiqotlari anchayin ilmiy jihatdan ahamiyatlidir. Ushbu olim soliq riskining turlari va o'ziga xos xususiyatlarini boshqa olimlarga nisbatan anchayin to'laroq ochib bergan. Ya'ni, uning ta'kidlashicha, "qarorlarni qabul qilishda salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligini bilish darajasiga ko'ra, soliq riski qasddan va qasddan bo'lmagan risklarga bo'linadi. Qasddan soliq riski, qoida tariqasida, faqat soliq to'lovchilar faoliyatiga xosdir. Bunda soliq to'lovchi soliq solishdan bo'yin tovlaydi, ya'ni soliqlarni budjet tizimiga to'lashdan yashirishning ataylab noqonuniy usullaridan foydalanadi. Shu nuqtai nazardan, vijdonli soliq to'lovchi - soliq va yig'implarni to'lashga majbur bo'lgan, o'zi hisoblagan barcha soliq va yig'implarni to'laydigan, soliq to'lovlarini optimallashtirishning shubhali usullarini ("soliq sxemalari") ataylab qo'llamaydigan, faqat shulardan foydalangan holda soliq to'lovchidir. Qasddan soliq tavakkalchiligi noaniqlik omillari: atrof-muhitning ob'ektiv noaniqligi, atrof-muhitning qarama-qarshiligining noaniqligi va shaxsiy noaniqlik bilan bog'liq".

Filina (2007) soliq riskini turlarini soliq riskining mohiyati va turlarini hisobga olgan holda, davlat, soliq to'lovchilar, soliq agentlari, o'zaro bog'liq shaxslarning soliq tavakkalchiligini ajratib ko'rsatadi. Gratoviy (1994) esa, "bashorat qilish imkoniyati nuqtai nazaridan soliq riski bashorat qilinadigan va oldindan aytib bo'lmaydigan tavakkalchiligiga bo'linadi" deb hisoblaydi, shuningdek, uning fikricha, vaqt muddati nuqtai nazaridan soliq riskini qisqa muddatli va doimiyga bo'lish mumkin, soliq riskining maqbullik darajasiga ko'ra qabul qilinadigan, tanqidiy va halokatli riskka ajratiladi. Migunova (2006) o'zining "soliq

nazoratidagi risklarni baholash va guruhlash" nomli asarida soliq riskini tavakkalchilikning maqsadga muvofiqligi (riskni o'z zimmasiga olish asoslari) bo'yicha quyidagilarga bo'lish mumkin: oqlangan (asosli) risk va asossiz tavakkalchilik (xatarli oqibatlar tahdidi bilan bog'liq bo'lgan risk), soliq riski yuzaga kelish doirasiga ko'ra tashqi va ichki"ga bo'ladi.

Soliq riskining mohiyatini tadqiq qilish fikrimizcha, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni baholashni ham taqozo etadi. Bu borada iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha yondoshuvlar mavjud. Jumladan, Leushev (2007) soliq risklarining paydo bo'lish omillari sifatida: soliqqa tortish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar, soliq qonunchiligi normalarini turlicha tushunish va o'ziga tegishli soliq majburiyatlarini bajarish imkoni yo'qligida deb tushuntiradi. Rossiyalik olimlar Tsirkunova (2005) va Migunovalar ham Leushev yondoshuviga o'xshash omillari keltirib o'tadi, ya'ni ushbu olimning fikricha, soliq riskining ichki omillari sifatida quyidagilarni keltiradi:

- soliqni rejalashtirishda yo'l qo'yilgan xatolar;
- soliq qonunchiligini turlicha tushunish;
- inson omili (soliq xatolari);
- xo'jalik-moliyaviy faoliyatdagi negativ o'zgarishlar.

Soliq riski bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Kalashnikovaning (2007) fikricha, "soliq riski– bu soliqqa tortish jarayonida soliq to'lovchi noqulay iqtisodiy oqibatlar, mol-mulkini qo'shimcha soliq summasi shaklida budjet foydasiga musodara etishni ham qo'shib, inson faktori, axborot asimmetriyasi natijasidagi soliq sanksiyalari va penyalari, soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi negativ o'zgarishlar oqibatida ehtimoliy shaklda duch kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchilikdir" deb izohlash bilan birga, soliq riskining avvalboshdagi sababi soliq to'lovlarini optimallashtirish shaklida minimizatsiya qilish emas, balki soliq to'lovchi ba'zan soliqni to'lashdan bo'yin tovlash va soliqlarni optimallashtirish o'rtasidagi nozik chegarani ilg'ay olmay qolgan holatlardir" deb tavsiflaydi.

Aksariyat olimlar soliq riskining omillari sifatida soliq qonunchiligini turlicha tushunish va uni ikki xil o'qish, jumladan soliqlarni optimallashtirish mezonlaridagi noaniqliklarni keltirib o'tadi. Bu borada Publikning (1999) fikri ahamiyatlidir. Ya'ni, uning ta'kidlashicha, riskni belgilash uni aniqlash va noaniqlik bilan chegaralanishi kerak. Bu uchun muallif risk sharoitida qarorlar qabul qilish vaziyatlari belgilarini ajratib ko'rsatishni taklif etadi:

- qaror qabul qiluvchi shaxs (qqqsh) bir nechta ehtimoliy harakatlardan birini tanlash zarurati oldida turibdi;
- harakatlardan biri kutilmagan oqibatlarga olib kelish ehimoli bor;
- qqqsh o'zini barcha ehtimoliy harakatlarning oqibati borasida xabardor hisoblaydi va bir natija ikkinchisi ortidan kelishini maqbul ko'radi, ya'ni oqibatlarni ularning o'ziga foydalilik nuqtai nazaridan tizimlaydi.

Bir qator mualliflar, turli sabablarga ko'ra soliq risklarini moliyaviy risklar sirasiga kiritishgan:

- soliq risklarining realizatsiyasi (oqibati) aksar hollarda soliq to'lovchining moliyaviy zarari shaklida namoyon bo'ladi;
- soliq risklarining asosiy qismi bevosita pul muomalasi shaklida baholanishi mumkin;
- soliq risklarida pul muomalasi bor va u ortiqcha xarajatga sabab bo'ladi.

Soliq risklari soliqqa tortish jarayonida soliq nazoratini amalga oshirish bosqichi shaklida namoyon bo'ladi. Tixonov va Lipnik amaliyot nuqtai nazaridan, o'z spesifikasi bilan farqlanuvchi bir nechta soliq risklari turlarini ajratib ko'rsatishadi. Bular – soliq nazorati risklari, soliqlar og'irlashuvining kuchayish risklari, soliqqa oid jinoyatlar ta'qibi risklari. Fikrimizcha, jinoiy ta'qib risklari soliq nazorati riskining bevosita oqibati bo'lib, shu vaqtning o'zida soliqlar og'irlashuvining kuchayish riski soliqqa tortish shartlarining soliq to'lovchi uchun noqulay bo'lgan variantidir, xolos.

Soliq to'lovchining u uchun sezilarli ahamiyatga ega bo'lgan, soliq to'lamaslikka olib keladigan harakati yoxud harakatsizligining sababi (inson omili, axborot asimmetriyasi yoki

bevosita niyat) ko'pincha soliq sanksiyalari hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi. Soliqqa tortish jarayonida axborot asimmetriyasiga duch kelgan qonunni hurmat qiluvchi soliq to'lovchida soliq risklari (soliq nazorati natijalariga ko'ra) ham etarlicha yirik va u soliqlarni hisoblashda tasodifiy xatolarning paydo bo'lishiga hamda uning soliq organlari tomonidan aniqlanish ehtimoliga olib keladi. Soliqlarni minimizatsiya qilishga faol urinadigan soliq to'lovchilarda bu risklar sezilarli ortadi.

- Ayrim olimlar, masalan, Stigler (1961) soliq riskini keltirib chiqaruvchi va unga ta'sir etuvchi omillar sirasiga axborot etishmovchiligi (axborot asimmetriyasi)ni keltirib o'tadi. Uning ta'kidlashicha, "soliqqa tortish jarayonidagi axborot asimmetriyasi – bu soliq to'lovchi va soliq organlarining soliq majburiyatlari to'lanishi borasidagi to'liq bo'lmagan yoxud ko'p variantli xabardorligidir. Soliq nazorati jarayonida u soliq organlariga to'liq axborotga ega bo'lmagan yoki turlicha (mavhum) axborot olganligi bois soliq majburiyatlarini to'liq to'lay olmagan soliq to'lovchilarga soliqlar, peniya va jarimalarni oxirigacha hisoblash imkonini yaratadi. Soliq to'lovchining to'g'ri xulq-atvorini qiyinlashtirib, qo'shimcha transaksiya xarajatlarni (axborot izlash xarajati) tug'dirib, axborot asimmetriyasi soliq riskiga va soliqqa tortish jarayonining samarasiz faoliyatiga olib keladi". Bundan farqli o'larov, Antipin (2003) esa, axborot asimmetriyasining sabablari sifatida: axborot olish, boshqa taqchil ne'matlar singari, qo'shimcha xarajatlarni talab etishi, axborot ma'nan umri qisqaligi bilan xarakterlanishi, har qanday iqtisodiy sub'ekt zarur axborotdan o'ziga mos ravishda foydalanish uchun uni ulkan hajmli axborot zahirasiidan ajratib ola bilishi, ehtimolki, qayta mulohaza qilishi va qayta ishlay olishi kabi omillarni keltirib o'tadi.

Bizningcha, soliq riski bu-har qaysi davlatning budget-soliq siyosatida asosiy maqsad qilib belgilangan maqsadlarga erishish borasida ham budget ham soliq to'lovchi manfaatlariga iqtisodiy-moliyaviy zid keladigan moliyaviy noaniqlik, xavf, mavhumlik holatlarini keltirib chiqaruvchi omillar majmuasi va ularning namoyon bo'lishidir.

Xulosa va takliflar.

Xavf, noaniqlik, stixiyalilik, mavhumlik kabi tabiiy-ob'ektiv jarayonlar jamiyatning boshqa jabhalari singari iqtisodiy munosabatlarda ham doimo mavjud bo'ladi. Iqtisodiyotning o'z o'ta murakkab munosabatlar va o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lgani kabi unda amal qiladigan turli xil iqtisodiy risklar ham shunchalik murakkab bo'ladi. Insoniyat iqtisodiyotda o'zaro munosabatlarga kirishishi bir tekisda bo'lmaydi, bu esa risklarning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Xavf tushunchasi bu riskni vujudga kelishini keltirib chiqaruvchi oraliq holat sifatida baholash o'rinlidir. Shu jihatdan olganda xavf bu salbiy oqibatlariga olib keluvchi oraliq jarayon (hodisa) bo'lsa, risk bu natijaviy holatdir. risklar ichida tadbirkorlik riski o'ziga xos murakkablik va xususiyatga ega. Avvalo tadbirkorlik faoliyati bu murakkab raqobat muhitidagi noaniq konyunkturaga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida amal qilishi bu borada juda ko'plab risklarni keltirib chiqaradi. Tadbirkorlik riskining darajasi esa, bir tomondan tashqi omillarga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan tadbirkorning iqtisodiy siyosati, uning bilim va malakasi hamda bozor qonunlariga hamda jamiyatdagi qabul qilingan milliy qonunlarga amal qilishiga bog'liq bo'ladi.

birinchidan, risklar doimo salbiy holat sifatida baholanadi;

ikkinchidan, noaniqlik, mavhumlik, ehtimollik, xavf kabi tushunalarni risklarning mavjudligi sifatida izohlanadi;

uchinchidan, risklar ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ega bo'lib, ular turli xid omillar hisobiga yuzaga keladi va ularning darajasini belgilab turadi;

to'rtinchidan, risklar ichida tadbirkorlik riski o'zining turli tumanligi, kechishining noaniqligi, uni boshqarishning murakkabligi hamda bozor qonunlariga muvofiqligi va boshqa omillar ta'sirida bo'lishligi bo'yicha ko'plab ilmiy qarashlarda uyg'unlik mavjuddir;

bashinchidan, iqtisodiy risklarni boshqarish menejment sohasidagi dolzarb masalalar sifatida keng tadqiq etib kelinmoqda.

Bizningcha, risk bu-tabiat va jamiyatning ob'ektiv qonunlari, ijtimoiy hayotni tashkil etish mazmunidan kelib chiqib, insonlarning hayotining bir maromda kechishi, iqtisodiy munosabatlarning insoniyat manfaatlariga mos kelishiga turlicha ta'sir etadigan va asosiy maqsadga erishishda to'sqinlik qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va sosial holat bo'lsa, soliq riski deganda har qaysi davlatning budjet-soliq siyosatida asosiy maqsad qilib belgilangan maqsadlarga erishish borasida ham budjet ham soliq to'lovchi manfaatlariga iqtisodiy-moliyaviy zid keladigan moliyaviy noaniqlik, xavf, mavhumlik holatlarini keltirib chiqaruvchi omillar majmuasi va ularning namoyon bo'lishi tushuniladi.

Adabiyotlar/Адабиётлар/References:

- Antipina O. H. (2003) axborot assimetriyasi / Antipina O. H. / xabar. Moskva un-ti. 6-seriya, Iqtisodiyot, - № 2.
- Ashurov Maxammadjon Sotvoldievich. (2020) Risk muhitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun.
- Boboev Sh.B. (2020) Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. Toshkent. 19 b.
- Elmirzaev S. (2018) korporativ soliqlarni rejalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: – 59 bet.
- Filin S. A. (2002) Moliyaviy risk va moliyaviy risklarni samarali boshqarish va taminlash jarayonida moliyaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi tarkibi. // Moliya va kredit № 3. 26b.
- Grabovoy P.G., Petrova S.N., Poltavtsev S.I. (2006) Riski v sovremennom biznese. M.: –Alans.
- Lavrushin O.I. (2007) Bankovskie riski. - M.: –Knorus.
- Ojegov S.I., Shvedova N.Yu. (2006) Tolkoviy slovar russkogo yazika. — M.: OOO —A TEMP//.
- Panova G.S. (2014) Kreditnaya politika kommercheskogo banka. - M.: –Yurayt.
- Sevruk V.T. (2006) Bankovskie riski. M.: –Delo-LTD//.
- Sey, J.B. (2007) Traktat po politicheskoy ekonomii. – M.: –Direkt-Media.
- Stigler G. (1961) The Economies of Information. -Journal of Political Economy. v. 69. № 3. P.35
- Usoskin V.M. (1994) Sovremenniy kommercheskiy bank: upravlenie i operatsii. - M.: IPS "vazar-Ferro", 1994.
- Бублик Д. (1999) Риск-ресурс: проблемы венчурно-стохастической деятельности. Уфа, с.37.
- Гратовый П.Г. (1994) Риски в современном бизнесе / Гратовый П.Г., Петрова С.Н., Полтавцев С.И., и др. - М.: Алане, - 200 с.
- Калашникова Эльвира Леонидовна. (2007) Налоговые риски: оценка и их финансовые последствия. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иркутск. стр. 83.
- Кодекс (2020) Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёт уйи.- 640 б.
- Леушев А. А. (2007) Методологические подходы к анализу и управлению налоговыми рисками // Финансы и кредит.-№ 17.- с.40.
- Мигунова М.И. (2006) Классификация и оценка рисков налогового контроля / М.И. Мигунова, Т.А. Цыкунова // Проблемы современной экономики. - № 1/2 (17/18).
- Насимов Р.А. (2024) "Солиқ юкини оптималлаштириш йўллари" (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент.
- Тихонов Д. Н. (2004) Налоговое планирование и оптимизация налоговых рисков. с.106.
- Тютюгина Анна Викторовна. (2013) Оценка и минимизация налоговых рисков, связанных с планированием и проведением выездных налоговых проверок. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. Иркутск - С.37.
- Филина Ф.Н. (2007) Анализ налоговых рисков / Российский бухгалтер, №11.
- Цыкунова Т. А. (2005) Налоговые риски: сущность и классификация / Т. А. Цыкунова, М. И. Мигунова // Молия ва кредит. - № 33. С.48.